O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - may 328-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi PQ–249-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholi, eng avvalo qishloq joylarda yashovchilarning hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari hamda xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari (keyingi o‘rinlarda — ichki yo‘llar) holatini yaxshilash va ulardan foydalanish sifatini oshirish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi PQ–249-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Andijon viloyatining olis va chekka hududlarida ichki yo‘llarni sement ishlab chiqaruvchilar tomonidan 10 yil mobaynida saqlab turish sharti bilan sement-beton qoplamaga, tajriba tariqasida, o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar va tuman hokimliklari, viloyat transport boshqarmasi, qurilish bosh boshqarmasi, Viloyat Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi, viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi 2022-yilda sement yoki beton ishlab chiqaruvchilarni jalb qilgan holda sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish va ta’mirlash ishlarini klaster usulida (keyingi o‘rinlarda — klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish) amalga oshirish haqidagi taklifi maqullansin.

Bunda, klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarning qurish qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish asosida beton qorishmasini ishlab chiqarish, yo‘l

konstruksiyasi asosini tayyorlash, qoplamani yotqizish hamda qurilgan yo‘llarni saqlash ishlarini nazarda tutadi.

4.Viloyatning 2022-yilda sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish parametrlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Belgilansinki, 2022-yilda klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish ishlari bo‘yicha:

manzilli ro‘yxatlar viloyatlar shahar va tuman hokimliklari tomonidan sektorlar rahbarlarining joylarda jamoatchilik fikri va talabini inobatga olgan holda bildirgan takliflari asosida shakllantiriladi hamda, Xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi;

xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobiga obyektlarni qurish, viloyatlar hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK DUKlar buyurtmachi etib belgilanadi;

loyiha tashkilotlarini jalb etish, mas’ul tashkilotlar bilan texnik shartlarni kelishish, ishlari;

ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari hamda shakllantirilgan narxlar Qurilish vazirligining «Shaffof qurilish» elektron platformasi orqali shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini amalga oshiruvchi vakolatli tashkilotlar tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tkaziladi;

klaster usulida ichki yo‘llarni qurish ishlarini amalga oshiruvchi bosh pudratchi (keyingi o‘rinlarda — bosh pudratchi) tashkilot, Xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali aniqlanadi;

qurilish ishlari yakunlanib, obyektlar foydalanishga qabul qilingandan so‘ng shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufiga beriladi hamda ushbu ichki yo‘llarni bosh pudratchi tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan 5 yil davomida kafolatli soz holatda saqlash va ekspluatatsiya qilish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha bosh pudratchi bilan shartnoma tuziladi. Bunda, bosh pudratchilarga nisbatan ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan barcha talablar, huquq va majburiyatlar amal qiladi;

obyektlarning loyiha-smeta hujjatlariga asosan ajratilgan mablag‘lar yetishmagan taqdirda, qo‘shimcha xarajatlar tegishlicha viloyat mahalliy budjeti hamda uning qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

6. Transport vazirligi huzuridagi Yo‘l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish

inspeksiyasi sement-beton qoplamaga o‘tkazilayotgan ichki yo‘llarning Qurilish vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus yo‘riqnomalar, shaharsozlik normalari va qoidalari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlar talablariga mosligi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yilda klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish ishlarini moliyalashtirish uchun:

a) Moliya vazirligi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlari uchun budjet parametrlarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha 430 mlrd so‘m ajratilishi;

b) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan 40 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ni yo‘naltirishi;

joriy yilning 1 sentyabriga qadar qo‘shimcha 40 mln AQSh dollari miqdorida xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb qilish choralarini ko‘rilishi;

v) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi — 2022-yil tasdiqlangan dasturlarga kiritilgan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlariga ajratilgan mablag‘larni qayta taqsimlash hisobiga 70,5 mlrd so‘m yo‘naltirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil va kelgusi yillarda klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish ishlarini moliyalashtirish uchun:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish viloyat boshqarmasi, viloyat moliya bosh boshqarmasi bilan birgalikda 2023-yil va kelgusi yillar uchun ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda tegishli mablag‘larni ko‘zda tutsin.

9. Buyurtmachi tashkilotlarga Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Transport vazirligi tavsiyalariga ko‘ra ichki yo‘llarni sement-beton qoplamaga o‘tkazish ishlari sifatli olib borilishini ta’minlash maqsadida xorijiy ekspertlarni hamda xalqaro sertifikatga ega injener-konsultantlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Toshkent viloyati axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyatlar hokimligi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida klaster usulida

ichki yo‘llarni sement-beton qoplamaga o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng ko‘lamda yoritish tavsiya etilsin.

11. Shahar va tuman hokimlari ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish hamda belgilangan reja ko‘rsatkichlari ijrosini o‘z muddatida ta’minlash yuzasidan shaxsiy javobgar etib belgilansin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari Sh.Mahmudov hamda N.Sharipov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 30 maydagi
328-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyatida 2022-yilda sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish

PARAMETRLARI

T/r	hududlar	2022-yilda quriladigan sement-beton qoplamali yo‘llar uzunligi *(km)*	shundan:		qo‘shimcha ajratiladigan mablag‘:		
			2022-yil «Obod qishloq» dasturi doirasida *(km)***	klaster usulida sement-beton qoplamaga o‘tkaziladigan ichki yo‘llar *(km)*	byudjet mablag‘lari *(mlrd so‘m)*	xalqaro moliya institutlari mablag‘lari *(mlrd so‘m)***	amaldagi dasturlarni optimallashtirish hisobiga *(mlrd so‘m)*
	Jami	**2 606**	**803**	**1 803**	**429,8**	**456,0**	**270,5**
1.	Toshkent viloyati	190	80	110	29,7	31,5	3,0

*Mazkur parametrlarga Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

** Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi huzuridagi «Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati» DUK va «Avtoyo‘linvest» agentligi buyurtmachiligi asosida amalga oshiriladi.